

“Moliya” so‘zi lug‘aviy ma‘nosi nimani anglatadi?

“daromad” yoki “to‘lov”

“to‘lov” yoki “foйда”

“talab” yoki “taklif”

raqobat yoki foyda

Moliya so‘zini ona tilimizda ishlatilishining qanday ko‘rinishlari mavjud?

biror shaxs, oila, jamoa, muassasa, tashkilot yoki davlat tasarrufidagi pul mablag‘lari, moliya ishlari bilan shug‘ullanuvchi davlat organi.

maqsadli pul fondlarini hosil etish, jamlash, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar majmui.

pul mablag‘larini shakllantirish, taqsimlash, ularni sarf qilish tizimi.

Moliyaning taqsimlash funksiyasi nimalarga shart-sharoit yaratib beradi?

xo‘jalik sub‘yekti va davlat darajasida zahiralar yaratishga, fuqarolar tomonidan jamg‘arishni, amalga oshirishga.

xo‘jalik sub‘yektlari, aholi, davlat va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari darajasida maqsadli pul mablag‘lari fondlarini shakllantirishga

shuningdek ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, aholi ijtimoiy guruhlari o‘rtasida qayta taqsimlashni sodir yetishga

xo‘jalik ichida, tarmoq ichida, tarmoqlararo, hududlararo, qayta taqsimlashni sodir etishga

Xorijlik iqtisodchilarning qarashlariga ko‘ra moliyaning qanday funksiyalari mavjud?

xo‘jalik yuritish jarayonini pul mablag‘lari bilan ta‘minlash.

pul fondlarini shakllantirish

nazorat

pul muomalasi qonuniyatlari

Moliya –bu?

MDni yaratish va undan foydalanishni bog‘lovchi bo‘g‘in:

Pulli munosabatlarni ifodalaydi;

Pulli munosabatarini tartibga soladi;

Pul fondlarini ifoda yetib, mamlakatning moliyaviy resruslarini tashkil etadi;

Markazlashtirilgan fondlar deb qanday fondlarga aytiladi?

xo‘jalik sub‘yektlari darajasida tuzilgan pul fondlari

davlat va maxalliy o‘z o‘zini boshqarish darajasida tuzilgan pul fondlari.

barcha byudjetdan tashqari fondlar.

davlat maqsadli pul fondlari.

Markazlashmagan pul fondlari nima uchun kerak?

Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar faoliyatini davom ettirish uchun

Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun.

Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar faoliyatini rivojlantirish uchun.

Xususiy kompaniyalarni rivojlantirish uchun

Moliyaviy yangiliklar degandanimani tushunasiz?

Moliyaviy yangiliklar deganda ayrim tadbirkorlarva firmalarning harakatlari natijasida yuzaga keladigan yangiliklarga aytiladi.

Moliyaviy yangiliklar deganda qaysidir markazlashtirilgan organlar tomonidan rejalashtirilgan yangiliklarga aytiladi
Moliyaviy yangiliklar deganda iqtisodiy manfaatlarning to'qnashuvi natijasida yuzaga keladigan yangiliklarga aytiladi
Moliyaviy yangiliklar deganda muhojir o'zining foydasi uchun harakat qiladigan individning hatti-harakatiga aytiladi
Mutloq o'zining foydasi uchun harakat qilayotgan individ, uning maqsadiga kirmaydigan natijaga**deyiladi?**

Innovatsion texnologiyalar;
Ko'rinmas qo'l;
O'zaro manfaatlarga erishish;
Xususiy kapital;

..... takidlaganidek, "Har bir individ o'zining kapitalini eng ko'p foyda keltirishi uchun ishlatishga harakat qiladi, uning niyatiga qoidaga ko'ra, umumiy manfaatlarga xizmat qilishi kirmaydi va u odatda, ularni qondirishga qanchalik yordam berayotganini bilmaydi"

A.Smit
Kantilon
D.Rikardo
U.Petti

Nechanchi yillarda Vank of Amerika Kaliforniya shtatining kredit kartochkalari bozorida yakka o'zi hukmronlik qilgan?

1958 yildan 1966 yilgacha,
1952 yildan 1962 yilgacha.
1956 yildan 1968 yilgacha.
1954 yildan 1967 yilgacha.

"Konsortsium" so'zining manosi nimani anglatadi?

"Konsortsium" so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, sheriklik, birga ishtirok etish degan ma'noni anglatadi.
"Konsortsium" so'zi yunonchaso'zdan olingan bo'lib, sheriklik, birga likda ishtirok etish degan manoni anglatadi
"Konsortsium" so'zi yunonchaso'zdan olingan bo'lib, qarzlarni to'lash degan manoni anglatadi
"Konsortsium" so'zi yunonchaso'zdan olingan bo'lib, innovatsion texnologiyalardan foydalanish degan manoni anglatadi

Xalqaro sayohatlarga kredit kartochkasini ishlatishni taklif qilgan birinchi kompaniya nima deb nomlanadi?

Diners Club
Master Card;
VISA;
Amerikan Exspress;

Tijorat banklari birinchi bo'lib kredit kartochkalari bilan ishlashni qachondan boshlab sinab ko'rishgan?

O'tgan asrning 50 yillarida,
O'tgan asrning 60 yillarida.
O'tgan asrning 70 yillarida.
O'tgan asrning 40 yillarida.

Vank of Amerika Kaliforniya shtatining kredit kartochkalari necha yil davomida bozorda yakka o'zi hukmronlik qilgan?

Sakkiz yil davomida,
Besh yil davomida.
O'n yil davomida.
Uch yil davomida.

1966 yil boshlarida Kaliforniyaning to'rtta yirik banki o'zlarining umumiy dasturini nima deb nomlangan?

Master Charge;
Bank of Amerika;
National City;
Master Card;

Kredit kartochkalaridan foydalanish xizmati bozorida ikkita yirik bank tizimini aniqlang?

VISA va Master Card.
Bank of AmerikavaNational City
Master Charge va VISA
Diners Club va Carte Blanche

Foiz stavkalari deganda nimani tushunasiz?

Foiz stavkalari deganda olinayotgan mablag'lar evaziga vada qilinayotgan daromadlilik stavkasiga aytiladi.
Foiz stavkalari deganda kreditning har qanday turi yoki qayd qilingan daromadga ega vositagaaytiladi
Foiz stavkalari deganda bank tomonidan firmalardan undiriladigan stavkaga aytiladi
Foiz stavkalari deganda bank tomonidan xususiyykompaniyalardan undiriladigan stavkaga aytiladi

Foiz stavkasi miqdoriga tasir etuvchi omillar nimalardan iborat?

Hisob-kitob pul birligi, to'lov muddati, to'lanmaslik muddati,
Valyuta kursi, to'lov muddati, to'lanmaslik muddati.
Hisob-kitob pul birligi,qimmatli qog'ozlar.
Valyuta kursi, to'lanmaslik muddati,default riski.

Hisob-kitob pul birligi.....hisoblanadi?

To'lovlar amalga oshiriluvchi pul birligi bo'lib,o'z ichiga, qoidaga ko'ra u yoki bu mamlakatning valyutasi,
Alohida individual mamlakatning valyutasi.
U yoki bu mamlakatning valyutasi.
Aniq belgilangan hisob-kitoblarniamalga oshiriluvchi pul birligi.

Foiz stavkasi bo'yicha to'lov muddati deganda nimani tushunasiz?

Qayd qilingan daromadga ega bo'lgan vosita bo'yicha davomiyligida jami olingan summani to'lash lozim bo'lgan vaqtga aytiladi,
Qayd qilingan daromadga ega bo'lgan instrument faqatgina aniq hisob-kitoblar asosida amalga oshirilishini anglatadi.
Qayd qilingan daromadga egasining to'laydigan foiz stavkasiga aytiladi.
Qayd qilingan daromadga ega bo'lgan instrumentning risksiz hisob-kitobni amalga oshirilishiga aytiladi.

To'lanmaslik riski deganda nima tushuniladi?

Qayd qilingan daromadga ega instrument bo'yicha qarzning asosiy summasi yoki foizning qandaydir bir qismi qarz oluvchi tomonidan to'lanmaslik ehtimoliga aytiladi.
Qayd qilingan daromadga ega bo'lgan vosita faqatgina aniq hisob-kitob pul birligiga muvofiq risk asosida amalgaoshirilishigaaytiladi
Qarz oluvchi o'z investorlariga uning qimmatli qog'ozlarini sotib olishga rozilik bildirishlari uchun vaqtinchalik to'lanmaslik holatiga aytiladi
Qayd qilingan daromadga ega instrumentning foizning belgilanganbir qismi qarz oluvchi tomonidan to'lanmasligiga aytiladi

”Komponent “ so'zining lug'aviy manosi nimani anglatadi?

Lotincha so'zdan olingan bo'lib, tashkil etuvchi, tarkibiy qism degan manoni anglatadi,
YUonchaso'zdan olingan bo'lib, birlashtiruvchi, asosiy tarkibiyqism degan manoni anglatadi.
Lotincha so'zdan olingan bo'lib, bir narsaning ideal namunasidegan manoni anglatadi.
Lotincha so'zdan olingan bo'lib, birlashtiruvchidegan manoni anglatadi.

1926 yildan buyon AQSH fond bozori investorlari uchun investitsiya qilgan kapitalga yillik o'rtacha daromadlilikni necha foiz miqdorida taminlab kelmoqda?

12%.

13%
10%
20%

AQSH G'aznachiligi qachondan boshlab indeksatsiyalangan obligatsiyalarni muomalaga chiqardi?

1997 yil yanvar oyidan,
1995 yil yanvar oyidan.
1996 yil fevral oyidan.
1998 yil mart oyidan.

Indeksatsiyalash deganda nima tushuniladi?

Investitsiya qilingan kapital daromadlilik dinamikasini ma'lum bir birja indeksiga bog'lash maqsadida asoslangan investitsiya strategiyasiga aytiladi.

Investitsiya qilingan kapital daromadliligining birgalashib o'z kapitalini qimmatli qog'ozlarga qilgan investorplarga aytiladi

Investorning rahbarligi asosida aktiv boshqarish strategiyasigaasoslangan fondlarga aytiladi

Xalqaro korporatsiyalar tomonidanaktiv boshqarish strategiyasigaasoslangan fondlarga aytiladi

Agar nominal foiz stavkasi 8%ni tashkil etsa, istemol narxlari indeksi proporsional tarzda o'zgaruvchi inflyasiya darajasi esa yillik 5% bo'lsa, daromadlilikning real stavkasi qanday bo'ladi?

Daromadlilikning real stavkasi 3%ni tashkil etadi:

Daromadlilikning real stavkasi 13%ni tashkil etadi;

Daromadlilikning real stavkasi 6%ni tashkil etadi;

Daromadlilikning real stavkasi 11%ni tashkil etadi;

Moliyaviy vositachilar tarkibiga nimalar kiradi?

Banklar,investitsiya va sug'urta kompaniyalari:

Markaziy banklar, investitsion kompaniyalar;

Fond birjalari, sug'urta kompaniyalari va o'zaro fondler;

Pensiya fondlari va o'zaro fondler;

"Bank" so'zining lug'aviy manosi qanday?

Bank" so'zi "bansa" italyanchadan tarjima qilinganda-suyanchiqli uzun kursi degan ma'noni angalatadi.

"Bank" so'zi "banka" lotinchadan tarjima qilinganda-stol usti degan manoni angalatadi

"Bank" so'zi "bansas" yunonchadantarjima qilinganda-stol atrofi kursi degan manoni angalatadi

"Bank" so'zi lotinchadantarjima qilinganda- sarrof kursi degan manoni angalatadi

Birinchi banklar qaerda paydo bo'lgan?

Italiya shaharlarida,

Fransiya shaharlarida.

SHvetsariya shaharlarida.

Angliya shaharlarida.

.....-bu moliyaviy vositachilar bo'lib, ularning asosiy funksiyasi uy xo'jaliklari va firmalarga alohida turdagi shartnomani sotib olish orqali risk darajasini kamaytirish imkoniyatini taqdim etishdir?

Depozit-jamg'arma muasasalari:

Sug'urta kompaniyalari;

Pensiya fondlari;

Sug'urta polisi;

Xizmat ko'rsatilgani uchun mijoz tomonidan to'lanadigan pullardeyiladi?

Sug'urta mukofoti;

Sug'urta polisi;

Mulkiy sug'urtalash;

Zararni sug'urtalash;

Sug'urta kompaniyalari mijozlardan olgan sug'urta mukofotlarini qanday moliyaviy aktivlarga qo'yadilar?

Aksiyalar,obligatsiyalar, ko'chmas mulkka,

Qimmatli qog'ozlarga.

Hosilaviy qimmatli qog'ozlarga, ko'chmas mulkka.

Faqat obligatsiyalarga.

Davlat qimmatli qog'ozlarini tartibga solish choralari shartli ravishda qanday guruhlarga bo'linadi?

Davlat ichki qarzini jalb qilish.

"olovli" choralar

Moliyaviy bozorning chegarasidan chetga chiquvchi choralar

Xorijiy qarzga olish

O'zbekiston Respublikasi nomidan davlat qimmatli qog'ozlarining emitenti qaysi organ hisoblanadi?

Markaziy bank;

Moliya vazirligi;

G'aznachilik;

Vazirlar Mahkamasi;

Davlat qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish qaysi davlat organlariga ta'qiqlanadi?

Ijroiya hokimiyat organlariga.

Moliya vazirligiga

Davlat byudjetdan tashqari jamg'armalariga

Nobyudjet fondlar

Davlat obligatsiyalari kim tomonidan hisobga olinadi?

Markaziy bank,

Moliya vazirligi.

Depozitariy.

Moliya bozori.

O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan davlat qimmatli qog'ozlarining turlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

Oltin zayomlar, xazina majburiyatlari,

Xazina veksellari, qisqa muddatli obligatsiyalar

Davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari

Davlatning uzoq va qisqa muddatli obligatsiyalari

Sug'urta tashkilotlari moliyaviy resurslari shakllanishining asosiy xususiyatlari keltirilgan javobni ko'rsating?

sug'urta munosabatlari ishtirokchilarining risklarini moliyalash- tirishdagi tadbirkorlik faoliyatining asosiy ko'rinishi.

sug'urta risklari transferi asosida sug'urta himoyasini taqdim yetish uchun maxsus pul fondlarini shakllantirish mexanizmi

sug'urta tashkilotlarining moliyaviy ahvoli sug'urta risklariga sarflangan mablag'lar natijasida zarar yetgan ko'pgina omillar

Sug'urta badallari yevaziga shakllanadigan pul mablag'lari fondi

Sug'urta tashkilotlari moliyaviy resurslari to'liq ko'rsatilgan javobni ko'rsating?

Maqsadli xorijiy qarzga olishlar:

jalb qilingan mablag'lar;

qarzga olingan mablag'lar;

o'z mablag'lari;

Sug'urta tashkilotlarining jalb qilingan mablag'lar tarkibi to'g'ri ko'rsatilgan javobni ko'rsating?

sug'urta zaxiralari:

hayot sug'urtasi bo'yicha zaxiralar;

jamg'arma zaxiralar;

texnik zaxiralar;

Sug'urta tashkilotlari pul munosabatlari tuzilmasi keltirilgan javobni ko'rsating?

Ichki,

Aylanma.

Tashqi.

Doiraviy.

Sug'urta tashkilotlari daromadlari tarkibi keltirilgan javobni ko'rsating?

Sug'urta faoliyatidan olinadigan, daromadlar

Sug'urta faoliyati bilan bog'liq faoliyatlardan olinadigan daromadlar

Boshqa faoliyatlardan olinadigan daromadlar

Tashqi manbalardan olinadigan daromadlar

Sug'urta, qayta sug'urta va o'zaro sug'urtalash bo'yicha olingan sug'urta mukofotlari daromadlari sug'urta tashkilotlari daromadlarining qaysi turiga kiradi?

Sug'urta faoliyatidan olinadigan, daromadlar

Sug'urta faoliyati bilan bog'liq faoliyatlardan olinadigan daromadlar

Boshqa faoliyatlardan olinadigan daromadlar

Investitsion fondlardan olinadigan daromadlar

Sug'urta tashkilotlari xarajatlari keltirilgan javobni ko'rsating?

Sug'urta faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq, xarajatlar

Kunlik birlamchi xarajatlar

Amalga oshirilmagan, ya'ni kelgusi xarajatlar

Sug'urta xizmatlari ko'rsatish va ularni sotish bilan bog'liq xarajatlar

Sug'urtaning funksiyalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni ko'rsating?

Sug'urta fondini tashkil yetish, foydalanish bilan bog'liq, funksiya

Nazorat funksiyasi

Qayta taqsimlash

Boshqarish

Sug'urta tashkilotlarining ustav kapitali minimal miqdoriga talablar bog'liq qatorni ko'rsating?

Jahon sug'urta bozorida yuzaga keladigan vaziyatlarga muvofiq kelishi,

Sug'urta obyektlari qiymatining o'sishi muammolari.

Sug'urta xodisalar yuz berish ehtimoli va ularning ta'sir darajasi o'sib borayotganligi bilan bog'liq.

Sug'urta xodisalar yuz berish ehtimolining mavjudligi.

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari kimlar hisoblanadi?

Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar.

Sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti

Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi

Sug'urta tashkilotlari va sug'urtalanuvchilar

Sug'urta zaxiralari miqdori hajmi nimaga bog'liq?

Sug'urta fondini tashkil yetadigan amalda va qayta tuzilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari hajmiga.

Sug'urta tashkilotlarining jalb qilingan mablag'lari miqdoriga

qarzga olingan mablag'larga

riskka tortilgan olingan mablag'larga

Sug'urta tashkilotlari daromadlarini qanday guruhga bo'lish mumkin?

Sug'urta faoliyatidan olinadigan, daromadlar

Sug'urta faoliyati bilan bog'liq faoliyatdan olinadigan daromadlar

Boshqa faoliyatlardan olinadigan daromadlar

Sug'urta mukofoti bilan bog'liq faoliyatdan olinadigan daromadlar

Sug'urta bajarmaydigan funksiyani ko'rsating?

Nazorat

Sug'urta fondidan foydalanish.

Taqsimlash.

Sug'urta fondini tashkil yetish.

Davlat krediti qanday klassifikatsiya qilinadi?

Bozorda muomala qilishga, qarab

Mablag' jalb qilishi muddatiga ko'ra

Qarz oluvchi va qarz beruvchiga qarab

Qarz majburiyatlarining ta'minlanganligiga qarab

Davlat kreditining soliqlaran farq qiluvchi xususiyatlarini ko'rsating?

ixtiyoriylik,

qaytaruvchanlik.

majburiylik.

haqlilik.

Davlat tomonidan ichki va tashqi mablag'lar qaysi maqsadlarda jalb qilinadi?

Iqtisodiyotni rivojlantirishni ustuvor yo'nalishlarini moliyalashtirish uchun,

Markazlashgan investitsiyalarni ko'paytirish uchun

Mavjud qarzlarni qayta moliyalashtirish uchun

Mavjud qarzlarni oz egalariga etkazich

Byudjet kreditlarining umumiy hajmi kim tomonidan aniqlanadi?

Vazirlar Mahkamasi tomonidan.
Moliya vazirligi tomonidan
Nazorat taftish bosh boshqarmasi tomonidan
Hisob Palatasi tomonidan

Davlatning maqsadli jamg'armalarining asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilardan qaysilarini ko'rsatish mumkin?

daromad manbalarining aniq belgilanganligi;
mablag'larning qat'iy maqsadli ishlatilmasligi;
mablag'larning shakllanishi va ishlatilish muddatlarining mos kelmasligi;
mustaqil moliya-kredit tashkiloti sifatida faoliyat ko'rsatishi;

O'zbekiston respublikasi byudjetdan tashqari pensiya fondi daromad manbalari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang?

Mulk shaklidan qat'i nazar, yuridik shaxs maqomida bo'lgan ho'jalik subyektlarining ish haqiga nisbatan o'rnatilgan yagona ijtimoiy to'lov.

Alohida yuridik shaxslardan ijtimoiy sug'urta badallari, yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslardan ijtimoiy sug'urta badallari

Fuqarolarning ish haqidan majburiy sug'urta badallari

faqat yuridik shaxslardan ijtimoiy sug'urta badallari

Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma qachondan Davlat maqsadli jamg'armasi nomini oldi?

1997.y
1999 y
2000 y
2002 y

Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi xarajatlari quyidagilarga yo'naltirilgan?

Ijtimoiy-madaniy tadbirlarga,
Qarilik nafaqalariga.
Nogironlik nafaqalariga.
Ishsizlik nafaqalariga.

Yagona ijtimoiy to'lovning qancha qismi Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi fondga tushadi?

0.1%
0,2%
0,3%
0,4%

Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat maqsadli jamg'armasining daromad manbalari nimalardan iborat?

xo'jalik yurituvchi subyektlar, muassasalar va tashkilotlarning mehnatga haq to'lash fondidan majburiy ajratmalar.

respublika byudjetidan tegishli byudjetlarni shakllantirishdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va mahalliy davlat organlari tomonidan belgilanadigan miqdordagi dotatsiyalar

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarni buzganlik uchun mahalliy mehnat organlari tomonidan solinadigan jarima, hisoblab chiqariladigan penyalarning summasi

respublika byudjetidan tegishli byudjetlarni shakllantirishdagi mablaglar

Quyidagilardan qaysilari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasining vazifalari hisoblanadi?

Respublika Yo‘l fondi mablag‘lari tushishi va sarf-lanishining yillik va choraklik balanslarini shakllantirish,

Investitsiya loyihalarining texnik iqtisodiy asoslash-larini hamda umumiy foydalaniladigan avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va jihozlash bo‘yicha ten-der hujjatlarini yekspertizadan o‘tkazish.

Yo‘l xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va jihozlashning aniq ro‘yxatlarini belgilangan tar-tibga keltirish.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil va temir yo‘llarini qurish va ta‘mirlash.

Quyidagilar kimlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika Yo‘l fondiga majburiy ajratmalar va to‘lovlarni to‘lashdan ozod yetilmaydi?

Davlat byudjetidagi tashkilotlar va muassasalar (faoliyat ixtisosligi bo‘yicha ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan tushgan daromadlar).

byudjetdan dotatsiya oluvchi tomosha ko‘rsatish bilan bog‘liq xo‘jalik yurituvchi subyektlar, sanatoriylar, dam olish uylari va pansionatlar

motoaravalar va avtomobillarga yega bo‘lgan va ularni sotib oluvchilar

yo‘l xo‘jaligi tashkilotlari - umumiy foydalanishdagi avto-mobil yo‘llarini saqlash, ta‘mirlash, rekonstruksiya qilish va qurish bo‘yicha ishlarni bajarishdan olinadigan daromadlar bo‘yicha

Davlat mulk Qo‘mitasining maxsus hisob raqamining shakllanish manbalarini ko‘rsating

aksionerlik jamiyatiga aylantirilgan davlat xo‘jalik yurituvchi subyektlarini aksiyalarini sotishdan tushgan daromad,

majburiy ajratmalar.

davlat mulkini ajjaraga berishdan tushgan to‘lovlari.

davlat mulki obyektlarini auksionda, tanlovda, savdo birjasi va savdo birjasidan tashqarida sotilganda.

Tiklanish va taraqqiyot fondi vazifasi to‘g‘ri korsatilgan qatorni toping?

Tijorat banklari, investorlar mablaglarini jamgarish.

Kichik xo‘jalik yurituvchi subyektlarga moliyaviy yordam berish

respublika byudjetidan tegishli byudjetlarni shakllantirishdagi

Investitsiya fondiga mablaglar kiritish

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasini shakllantirishning asosiy manbalari quyidagilardan iborat?

Strategik resurslarga jahon narxlarining qulay konjunkturasi natijasida, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlardan olinadigan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan navbatdagi yilga Davlat byudjetini tasdiqlash chog‘ida belgilanadigan ayrim soliq va to‘lov turlari bo‘yicha hosil bo‘ladigan qo‘shimcha tushumlar,

Hukumatning xorijiy valyuta va aktivlarining bir qismi

O‘zbekiston Respublikasining xorijiy sheriklar bilan mahsulotni taqsimlash to‘g‘risidagi bitimlari doirasida mahsulot sotishdan oladigan daromdlari

Jamg‘arma aktivlarini boshqarishdan olinadigan investitsiya daromdlari

Bir guruh investorlar tomonidan sotib olinadigan va professional investitsiya kompaniyasi yoki boshqa biror moliya muassasasi tomonidan boshqariladigan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa aktivlarga deyiladi?

O‘zaro fondlar:

Pensiya fondlari;
Sug'urta kompaniyalari;
Depozit-jamg'arma muasasalari;

Ochiq turdagi o'zaro fondlar deganda nima tushuniladi?

Ochiq turdagi o'zaro fondlar deganda-o'zlari emissiya qilgan aksiyalarni bir aksiya hisobidan sof aktivlar bahosi bo'yicha sotish va sotib olish majburiyatiga aytiladi.

Ochiq turdagi o'zaro fondlar deganda-o'zlari emissiya qilgan aksiyalarni sotish va sotib olish majburiyatiga aytiladi

Ochiq turdagi o'zaro fondlar deganda-davlat tomonidan emissiya qilgan aksiyalarni bir aksiya hisobidan sof aktivlar bahosi bo'yicha sotish va sotib olish majburiyatiga aytiladi

Ochiq turdagi o'zaro fondlar deganda-hamkorlikda emissiya qilgan aksiyalarni bir aksiya hisobidan sotib olish majburiyatiga aytiladi

Investitsion banklarning asosiy vazifasi nimadan iborat?

Investitsion banklar-bu shunday firmalarki,ularning asosiy vazifasi xususiy kompaniyalar, hukumat va boshqa tashkilotlarga o'z faoliyatini moliyalashtirish uchun zarur mablag'larni jalb qilishga yordam berishdan iborat.

Investitsion banklar-bu shunday firmalarki,ularning asosiy vazifasi xorijiy investorlarni keng jalb qilish uchun o'z faoliyatini moliyalashtirish uchun zarur mablag'larni jalb qilishga yordam berishdan iborat

Investitsion banklar-bu shunday firmalarki,ularning asosiy vazifasi faqat xalqaro korporatsiyalarga moliyalashtirish uchun zarur mablag'larni jalb qilishga yordam berishdan iborat

Investitsion banklar-bu shunday banklarki,ularning asosiy vazifasi davlat tomonidan belgilangan xususiy kompaniyalarni faoliyatini moliyalashtirish uchun zarur mablag'larni jalb qilishga yordam berishdan iborat

Andarrayting-bu nima?

Andarrayting-bu mohiyatan emitent uchun o'ziga xos sug'urta hisoblanib,bunda investitsion bank emitentning chiqarilgan qimmatli qog'ozlarini kafolatli joylashtirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi:

Andarrayting-bu kapital qo'yuvchi firmalar investitsiya banklarga o'xshash, korporatsiyalarni o'z zimmasiga oladi;

Andarrayting-bu xususiy kompaniyalar, hukumat va boshqa tashkilotlarga o'z faoliyatini moliyalashtirish uchun zarur mablag'ni jalb etilishini o'z zimmasiga oladi;

Andarrayting-bu transmilliy korporatsiyalar tomonidan firmalar faoliyatini moliyalashtirish uchun jalb etilaligan mablag'ni o'z zimmasiga oladi;

Moliyaviy hisobotlar tizimini o'rganuvchi predmet yoki fan..... deyiladi?

Buxgalteriya hisobi:

Moliyaviy tahlil;

Iqtisodiy tahlil;

Buxgalteriya hisobi nazariyasi;

Moliyaviy infratuzilma tarkibi nechta qismdan iborat?

Uch qismdan,

Ikki qismdan.

To'rt qismdan.

Besh qismdan.

Qimmatli qog'ozlar savdosi odatda tomonidan o'rnatiladi?

Uyushgan birjalar tomonidan:

Fond bozorlari tomonidan;

O'zaro fondlar tomonidan;
Moliyaviy bozorlar orqali;

Moliya bozorining moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi qanday kichik funksiyalarga bo'linadi?

narx va moliyaviy risklarni oldini olish funksiyasi,
moliyaviy resurslarni tarmoqlar va bozor faoliyati sohalari (sferalari) o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash.
jamg'armalarni, ayniqsa aholi jamg'armalarini, noishlab chiqarish shaklidan ishlab chiqarish shakliga o'tkazish.
noinflyatsion asosda davlat byudjetini moliyalashtirish, ya'ni qo'shimcha pulni muomalaga chiqarmasdan.

Moliya bozorining segmentlari bo'yicha turlarini ko'rsating?

pul-kredit bozori; qimmatli qog'ozlar bozori; valyuta va unga tyenglashtirilgan avuarlar bozori; sug'urta va pensiya fondlari bozori:

Pul bozori, kapital bozori, investitsiya bozori;

Valyuta bozori, fond bozori, qimmatli qog'ozlar bozori;

Pul bozori, kredit bozori, valyuta va unga tenglashtirilgan avuarlar bozori, investitsiya bozori;

Moliya bozori iqtisodiyotda qo'yidagilardan qay biri mavjud bo'lgandagina samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin:

effektiv (samarali) mulkchilik tizimi:

bozor qonunlari, tamoyillari va qonunchiligini xukm surishi;

talab va taklifning nomutanosibligi;

moliya bozori infratuzilmasini samarali faoliyati;

Moliya bozorining bozor munosabatlari tizimidagi ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?

iqtisodiyotning real sektoriga investitsion moliya resurslarni samarali jalb qilinishida,

davlatning kredit-pul siyosatini tatbiq etishda.

inflyatsiya sur'atlari (templari) va valyuta kurslari o'zgarishiga operativ ta'sir ko'rsatilishi.

talab va taklifning nomutanosibligi.

Investitsiya institutlari bu-?

qimmatli qog'ozlarni hayot siklidagi jarayonda sodir (talab) bo'ladigan xizmatlarni belgilangan tartibda ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati.

moliya bozorining fond segmentida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha malakali xizmatlar ko'rsatuvchi moliyaviy institut

fond (qimmatli qog'ozlar) bozorida professional faoliyat

moliya bozorida investorlar uchun xizmat qilish faoliyati

Hisob kliring palatasining vazifasi nimadan iborat?

Hisob kliring palatasi to'lovlarni amalga oshirish va tovarlarni etkazib berish majburiyatini bajarilishini nazorat qilish bilan, shug'ullanadi

Hisob kliring palatasi tovarlarni etkazib berish majburiyatini olgan firmalar majburiyatini bajarilishini nazorat qilish bilan shug'ullanadi

Hisob kliring palatasi to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini zimmasiga olgan xususiy firmalar faoliyatini nazorat qilish bilan shug'ullanadi

Hisob kliring palatasi qmoliya bozorida qimmatli qog'ozlar savdosi bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish bilan shug'ullanadi

"Status" so'zining lug'aviy manosi nimani anglatadi?

STATUS" lotinchada "status" so'zidan olingan bo'lib, ahvol, holat degan manoni anglatadi:

"STATUS" yunonchada "status" so'zidan olingan bo'lib, maqsaddegan manoni anglatadi;
"STATUS" lotinchada "status" so'zidan olingan bo'lib, birlashma degan manoni anglatadi;
"STATUS" lotinchada "status" so'zidan olingan bo'lib, tez fursatda degan manoni anglatadi;

Banklarga bo'lgan ishonchning pasayishiga sabab bo'ladigan omillar qanday javobda noto'g'ri keltirilgan?

Mijozlar va aholi oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasa

Mijozlar va aholi oldidagi majburiyatlarini to'liq va to'xtovsiz ravishda bajarsa.

Aholi va mijozlarning kreditga, ayniqsa naqd pulga bo'lgan talabining to'liq va o'z vaqtida qondirilmasa.

Mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha mablag'lar qoldig'i va aylanmalari haqida bank sirining ta'minlanmasa.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi asosan qanday tarkibiy tuzilishga ega?

Bank tizimi ikkibo'g'indan iborat bo'ladi:

Bank tizimi birbo'g'indan iborat bo'ladi;

Bank tizimi uch bo'g'indan iborat bo'ladi;

Bank tizimi to'rt bo'g'indan iborat bo'ladi;

Bank kreditida kreditning ob'ekti nima hisoblanadi?

Pul kapitali;

Savdo kapitali;

Tovar kapitali;

Davlat mablag'lari;

Dastlab kreditning qanday shakli vujudga kelgan?

Aralash kredit;

Tovarli kredit;

Pulli kredit;

Bank krediti;

Xalqaro amaliyotda tijorat krediti asosan qanday qimmatli qog'oz vositasida beriladi?

Aksiyalar yordamida.

Oddiy aksiyalar

Vekselda

Imtiyozli aksiyalarda

Iste'mol krediti qanday maqsadlarga beriladi?

Yuridik va jismoniy shaxslarga kundalik ehtiyojga zarur bo'lgan tovar va buyumlarni sotib olishga.

Asosan jismoniy shaxslarga kundalik ehtiyojga zarur bo'lgan tovar va buyumlarni sotib olishga

Asosan jismoniy shaxslarga ishlab – chiqarishni rivojlantirishga

Asosan yuridik shaxslarga ishlab – chiqarishni rivojlantirishga

Tijorat asosida faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyasini tashkil yetish tamoyillarini ko'rsating?

Oshkoralik.

Moddiy javobgarlik

Moliyaviy zaxiralar tashkil yetish

O'z-o'zini moliyalashtirish

Notijorat tashkilotlari faoliyatining moliyaviy manbalarini ko'rsating?

Byudjetdan ajratmalar:

Tashkilotning foydasi;
Ta'sischilardan tushumlar;
Tijorat faoliyatidan olinadigan daromadlar;

Notijorat asosida xo'jalik yuritishning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

Bozor xo'jaligining iqtisodiy samardorligiga va faoliyatning sotsial samaradorligini birgalikda qo'shib olib borish.

Faoliyatning foyda olishga yemas, ma'lum bir missiyaga yerishishga yo'naltirilganligi
Qilingan maqsadlarga yerishish uchun olingan foydadan vosita sifatida foydalanish
Individual faoliyatning foyda olishiga yemas, balki barcha shaxslar faoliyatiga yo'naltirilganligi

Moliyaviy oqimlar deganda nima tushuniladi?

Resurslarning moliyaviy resurslari ortiqcha bo'lgan iqtisodiy subektlardan moliyaviy resurslari defetsit bo'lgan iqtisodiy subektlarga oqib o'tishiga moliyaviy oqim deyiladi.

Moliyaviy resurslari ortiqcha bo'lgan iqtisodiy subektlardan moliyaviy resurslarning safabar etilishigamoliyaviy oqim deyiladi

Pul mablag'larining bevosita moliyaviy bozorlarda, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozorida iqtisodiy subektlar o'rtasida taqsimlanishigamoliyaviy oqim deyiladi

Moliyaviy tizimlar doirasida resurslarning boshqa iqtisodiy subektlaro'rtasida taqsimlanishiga moliyaviy oqim deyiladi

"Birja" so'zining lug'aviy manosi nimani anglatadi?

"Birja" so'z yunoncha "bursa"-hamyon, xalta degan manoni anglatadi,

"Birja" so'z lotinchada "bursa"-pul resurslaridegan manoni anglatadi.

Birja" so'z italyancha "bursa"-bo'linishi kerak bo'lgan narsa degan manoni anglatadi.

"Birja" so'z yunoncha "bursa"-savdo muassasalari degan manoni anglatadi.

Uy xo'jaliklarida iste'mol maqsadlari va jamg'arish uchun pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, ularni taqsimlash va foydalanishga tegishli bo'lgan iqtisodiy munosabatlar majmuiga moliyasi deyiladi?

uy,

xonadon.

oila.

uy xo'jaliklari.

Umumdavlat moliyasini tarkibi:

davlat byudjeti, davlat xo'jalik yurituvchi sub'yektlari moliyasi, BTF, fond bozori,

BTF, davlat krediti

davlat byujeti

davlat xo'jalik yurituvchi sub'yektlari moliyasi

Uy xo'jaliklarining jami daromadlari guruhlariga to'liq ko'rsatilgan javobni ko'rsating?

Uy xo'jaliklarining natural shakldagi daromadlari:

uy xo'jaliklarining pul shaklidagi daromadlari;

uy xo'jaliklarining naxdsiz pul shaklidagi daromadlari;

uy xo'jaliklarining naqd pul korinishidagi daromadlari;

Uy xo'jaliklari pul daromadlarini tahlil qilishning asosi aholining shaxsiy daromadlari qaysi ko'rsatkichlarda hisoblanadi?

nominal daromadlar:

ega bo'lingan daromadlar;
real daromadlar;
Jalb qilingan daromadlar;

Uy xo'jaliklarining pul daromadlari qaysi manbalar hisobidan shakllanadi?

mehnat haqi, ijtimoiy to'lanmalar,
tadbirkorlik faoliyatidan keluvchi daromadlar.
mol-mulkdan keluvchi daromadlar.
yagona ijtimoiy to'lov.

Kredit siyosati natijasida kreditning arzonlashuvi nimalarga olib keladi?

Iqtisodiyotni izdan chiqishiga.
Byudjet daromadlarini ko'payishiga
takror ishlab chiqarish jarayoni sub'yektlari daromadlarining oshishiga
Kredit inqirozini yuzaga kelishiga

Moliya tizimi bu:

moliyaviy munosabatlarning turli bo'g'inlari yig'indisidir.
moliyaning funksiyalarini shakllantirish bilan bog'liq munosabatlar majmuidir
moliya sub'yektlari va moliya siyosatini o'z ichiga qamrab oluvchi munosabatlar yig'indisidir
moliya sub'yektlari, moliya siyosati hamda moliya mexanizmini o'z ichigi qamrab oladigan munosabatlar majmuidir

Moliya tizimining funk siyalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

-rejalashtirish –nazorat –taqsimlash -rivojlantirish
-rejalashtirish; -tashkillashtirish.
-nazorat;-rag'batlantirish.
-nazorat -taqsimlash-rivojlantirish.

Moliya tizimining asosiy bo'g'inlari qaysilardan tashkil topgan?

-xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyasi-umumdavlat moliyasi; -sug'urta moliyasi.
-xo'jalik sub'yektlari moliyasi
-umumdavlat moliyasi;-sug'urta moliyasi; -xonadon moliyasi
- umumdavlat moliyasi

Quyidagilardan qaysi biri moliyaviy munosabat hisoblanmaydi?

sug'urta badallarini to'lash va zararlarni qoplash paytida aholi, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar hamda sug'urta organlari o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari.
Kredit olish paytida aholi, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar hamda kredit tashkilotlari o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari
xo'jalik yurituvchi sub'yektlar fondlarining doimiy doiraviy aylanishiga xizmat qiluvchi pul munosabatlari
solliqlar va boshqa ixtiyoriy to'lovlarni to'lash jarayonida davlat va fuqarolar o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari

Qaysi javobda moliyaning o'ziga xos belgilari namoyon bo'ladi?

pul mablag'lari xarakatining bir tomonlama yo'nalishga ega ekanligi.
real pullar xarakatiga bog'liq bo'lgan huquqiy me'yorlar yoki biznesni yuritish yetikasiga asoslangan munosabatlarning taqsimlash xaraktyeri
markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini yaratish
solliqlar va boshqa ixtiyoriy to'lovlarni to'lash jarayonida davlat va fuqarolar o'rtasidapul fondlarini yaratish

Pul siyosati orqali qanday vazifalar amalga oshiriladi?

muomaladagi pul miqdori tovarlar massasi miqdoriga mos kelmagan sharoitda pul massasining yetmagan qismini qog'oz pullar hisobidan yoki xorijiy valyuta hisobidan to'ldirish.

agar pul massasi unga bo'lgan talabdan ortiq bo'lsa, yo pul massasining mamlakatdan chetga chiqishini oldin olish

mamlakatda xorijiy valyutaning muomalada bo'lishiga ruxsat bermaslik

takror ishlab chiqarish jarayoni sub'yektlari daromadlarining oshishigaruxsat bermaslik

Quyidagilardan qaysi biri pul siyosatining tarkibiy qismi hisoblandi?

Emissiya siyosati;

Inflyatsiyani oldini olish siyosati;

milliy valyutaning barqarorligi;

Xorijiy valyutani ko'paytirish;

Kredit siyosati natijasida kreditning arzonlashuvi nimalarga olib keladi?

Iqtisodiyotni izdan chiqishiga;

Byudjet daromadlarini ko'payishiga;

takror ishlab chiqarish jarayoni sub'yektlari daromadlarining oshishiga;

Kredit inqirozini yuzaga kelishiga;

Zamonaviy moliyaviy bozorning eng umumiy ko'rinishi qanday tarkibiy qismlardan iborat?

Pul bozori, kapital bozori, fond bozori, valyuta bozori;

Kapital bozori, investitsiya bozori, qimmatli qog'ozlar bozori;

Fond bozori, qimmatli qog'ozlar bozori, valyuta bozori, birjalar bozori;

Moliyaviy bozor, valyuta bozori, fond bozori;

"Integratsiya" so'zining lug'aviy manosi nimadan iborat?

"Integratsiya" so'zi lotinchadan olingan bo'lib, tiklash, qaytadan boshlash, to'ldirish degan manoni anglatadi.

"Integratsiya" so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, munosabatlarni tiklashdegan manoni anglatadi

"Integratsiya" so'zi lotinchaso'zdan olingan bo'lib, kapital safarbar etishdegan manoni anglatadi

"Integratsiya" so'zi lotinchaso'zdan olingan bo'lib, iqtisodiy to'ldirishdegan manoni anglatadi

Forvard kontraktlar deganda nima tushuniladi?

